

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna
Oriental universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rtalim bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning joriy mexanizmlari tahliliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Bunda jarayonni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va oliy ta'lif muassasalariga kirish imtihonlarini tashkil etishdagi mavjud muammo va kamchiliklar bo'yicha tahliliy mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: yakuniy davlat attestatsiyasi, maktab bitiruvchilari, bitiruv imtihonlari

Umumiy o'rtalim maktablarida ta'lif sifatini nazorat qilish bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylangan. Chunki ta'lifdagi har qanday islohot natijasi oxir-oqibat ta'lif sifatining samaradorligi bilan baholanadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ta'lif sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida ta'lifning uzlusizligi va izchilligi keltirilgan²⁴. Bunda ta'lif tizimining barcha bosqichlarida o'zaro izchillikni ta'minlash ta'lif sifatini har bir bosqichda monitoring qilishga imkon yaratadi.

Umumiy o'rtalim maktablari o'quvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning qonuniy asoslari quyidagi hujjatlar orqali tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikaning "Ta'lif to'g'risidagi" Qonuni (23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son);
- "Umumiy o'rtalimning davlat ta'lif standarti" (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-son buyrug'iga 1-ilova);
- "Umumiy o'rtalim to'g'risida nizom" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 15.03.2017-yildagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan)
- "Umumiy o'rtalim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom (Xalq ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdag'i 56-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.



Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini, o'quv yuklamasining zarur hajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi hamda o'quv reja va dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlariga quyidagicha izoh berish mumkin: davlat ta'lim standartining yadrosi hisoblangan uzuksiz majburiy ta'lim tizimining bosqichlariga qo'yiladigan majburiy minimal talablar – o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va kompetentlilik darajasiga qo'yiladigan talablar; uzuksiz majburiy ta'lim tizimining majburiy minimal ta'lim mazmuni va egallanadigan kompetensiyalar – o'quvchilarning ta'lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan turli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisidir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumiy o'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari o'zaro aloqadorlikda bo'lgan bir nechta komponentlardan tashkil topadi.

"Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"da maktab bitiruvchilarini baholashga quyidagi ta'rif beriladi:

"Baholash tizimi - davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat"²⁵.

Bu o'rinda baholashga berilgan ta'rifda ikki jihat muhimdir, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va mana shu darajaga qarab butun bir ta'lim muassasasining faoliyatini monitoring qilish. Chunki DTS avvalo, mana shu talablarni belgilab beradigan tayanch hujjat sifatida ushbu ikki jarayonni amalga oshirish mexanizmlarini yoritgan.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida davlat ta'lim standartiga asoslangan holda umumta'lim fanlarini o'rganish quyidagi **standart darajalariga** muvofiq amalga oshiriladi:

A1 Umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darjasи

A1+ Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darjasи

A2 Umumta'lim fanlarini o'rganishning tayanch darjasи

A2+ Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darjasи

²⁵ "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-son buyrug'iiga 1-ilova



B1 Umumta'lif fanlarini o'rganishning umumiylarini darajasi

B1+ Umumta'lif fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan darajasi²⁶

Jumladan, umumiylarini o'rta ta'lif maktabalarining 11-sinf bitiruvchilarini umumta'lif fanlarini bo'yicha B1 darajaga, ixtisoslashgan maktab bitiruvchilarini esa B1+ darajaga ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida umumiylarini o'rta ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini uchun umumiylarini o'rta ta'lif dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniylarini attestatsiyadan o'tish majburiyligi belgilab qo'yilgan. Maktab bitiruvchilarining bilimi, malaka va ko'nikmalariga qo'yilgan talablarning bajarilishi bo'yicha yakuniylarini attestatsiya yozma, og'zaki yoki test usulida har bir fanning amaldagi o'quv dasturi asosida o'quv yilining yakuni bo'yicha o'tkaziladi.²⁷

Yakuniylarini attestatsiya bitiruvchi sinflarda yakuniylarini attestatsiya o'tkaziladigan fanlar ro'yxati, shakli va muddatlari har o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar amaldagi vaziyatga nazar tashlaydigan bo'lsak, har yili mart-aprel oyalarida fanlar ro'yxati, shakli va muddatlari tasdiqlanadi. Bu esa ushbu jarayonga yetarlicha tayyorgarlik darajasiga salbiy ta'sir etadigan bir omildir. Masalan, 2022-yilda Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 28-fevraldagagi 70-sonli buyrug'iiga asosan umumta'lif maktabalarining 11-sinf bitiruvchilarini uchun yakuniylarini davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar ro'yxati tasdiqlangan, ammo ushbu xabar 30-mart kuni e'lon qilingan. 2021-yilda esa bundan ham kechroq, ya'ni 12-aprel kuni e'lon qilingan.

Odatda imtihon o'tkaziladigan fanlar soni beshta bo'lib, ulardan to'rttasi Xalq ta'limi vazirligi buyrug'iiga asosida qat'iy belgilab berilsa, beshinchisi qo'shimcha ravishda o'quvchilarining tanlovi asosida belgilangan fan bo'yicha o'tkaziladi. Tanlov fani sifatida "Kimyo", "Biologiya", "Informatika va axborot texnologiyalari", "Fizika" fanlaridan 1 tasi tanlanadi. Bunda variativ o'quv reja asosida ta'lif olgan o'quvchilar ham ushbu tanlov fanlaridan birini tanlaydi:

2020/2021-o'quv yilida ushbu fanlar sifatida "Ona tili va adabiyot", "Matematika", "Chet tili", "O'zbek tili/rus tili" (ta'lif o'zbek tilidagi maktabalar uchun "Rus tili", ta'lif rus va qardosh tillardagi maktabalar uchun "O'zbek tili") hamda bitta tanlov fani;

2021/2022-o'quv yilida esa ona tili va adabiyot, matematika, chet tili, tarix va bitta tanlov fani belgilangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, maktabalarning aksariyat qismida tanlov fani sifatida kimyo va biologiya fanlari tanlanmoqda.

²⁶ O'sha manba.

²⁷ "Umumiylarini o'rta ta'lif oluvchilarining yakuniylarini davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom



Umumta'lim mакtablarida ta'lим beriladigan barcha tillarda yakuniy davlat attestatsiyalari o'tkaziladigan fanlar bo'yicha namunaviy nazorat materiallari Respublika ta'lим markazi tomonidan taylorlanib, ta'lим markazining rasmiy saytida e'lon qilinadi. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi ham Nizom bilan belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra mакtab bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasini shu mакtab pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan yakuniy attestatsiya komissiyasi muvoqqlashtiradi. Yakuniy attestatsiyani tashkil etish va o'tkazish uchun barcha javobgarlik mакtab yakuniy attestatsiya komissiya raisi zimmasida bo'ladi. Yakuniy attestatsiya o'tkaziladigan har bir fandan mакtab direktorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi quyidagi tarkibda tayinlanadi:

o'quv fani bo'yicha yakuniy attestatsiya komissiyasi raisi — mакtab direktori, uning o'rinosari yoki mакtab o'qituvchisi; sinfda mazkur fandan dars bergen o'qituvchi; tegishli fan yoki una yaqin bo'lган fan o'qituvchisidan bitta assistant.²⁸

Tegishli fan bo'yicha yakuniy attestatsiyani tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha javobgarlik mazkur fan bo'yicha tuzilgan yakuniy attestatsiya komissiyasi raisi zimmasiga yuklatiladi. Garchi yakuniy attestatsiya o'tkaziladigan fandan dars bergen o'qituvchi shu sinfga yakuniy attestatsiya komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emasligi belgilangan bo'lsa-da, amalda imtihon natijalarini baholash, yakuniy qarorni qabul qilish sinfda shu fandan dars bergen o'qituvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu esa o'z navbatida baholashning ishonchlilikiga, ta'lим sifatining valid baholanishiga salbiy ta'sir qiladi. Yakuniy attestatsiyada vasiylik kengashi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ota-onalar qo'mitasi vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishlari belgilab qo'yilganiga qaramay amaliyotda ushbu jarayon to'lig'icha mакtab ma'muriyati javobgarligi va nazorati ostida o'tmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi" 2-bob, 5-bandı
2. "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom (Xalq ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdagи 56-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).
3. "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizom" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 15.03.2017-yildagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan)

²⁸ "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom



4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi 154-sonli qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ – 4708-son qarori

6. O‘zbekiston Respublikaning “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni (23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son);

7. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti” (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-son buyrug‘iga 1-ilova);

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi respublika ta`lim markazi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-, 11-sinf o‘quvchilari yakuniy nazorat imtihonini o’tkazish bo‘yicha metodik tavsiya va materiallar. 2022

